# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
***(2023-yil yanvar oylari uchun dastlabki ma’lumot)***

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

2023- yilning yanvar oyi yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 36,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 12,0 mln. AQSh dollariga kamaydi yoki 75,5 % ni tashkil etdi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI**
***(yanvar oyi, ming AQSh dollari)***

| | 2022- yil | 2023- yil | O‘sish sur’ati, % da | Jamiga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|---|
| Tashqi savdo aylanmasi | 48 870,1 | 36870,1 | 75,5 % | x |
| **Eksport** | **31 072,6** | **18 279,3** | 58,8 % | **100,0** |
| *tovarlar* | *30 947,3* | *18 212,2* | *58,8* | *99,6* |
| *xizmatlar* | *125,3* | *67,1* | *53,5* | *0,4* |
| *oltin* | - | - | - | - |
| **Import** | **17 770,1** | **18 590,8** | 104,6 % | **100,0** |
| *tovarlar* | *16 727,4* | *14 193,5* | *84,9* | *76,3* |
| *xizmatlar* | *1 042,7* | *4 397,3* | *421,7* | *23,7* |
| **Saldo** | **13 302,5** | **- 311,5** | **x** | **x** |

*Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi 18,3 mln. AQSh dollariga (58,8 % ni) va import hajmi 18,6 mln. AQSh dollariga (4,6 % ga ko‘paydi) tashkil etdi. Hisobot davrida 0,3 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**
***(2023- yil yanvar oyi, mln. AQSh dollari)***




Qoraqalpog‘iston Respublikasi, jahonning 39 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (23,8 %), Xitoy Xalq Respublikasida (19,0 %), Qozog‘istonda (9,2 %), Latviyada (3,2 %), Rossiya Federatsiyasida (11,6 %), Niderlandiyada (1,6 %) va Gruziyada (0,5 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga import tovarlarning o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

TSA da so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSAda Qirg‘iziston, Afg‘oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo‘shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulushTurkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Latviya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.



**TO‘RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR**
***(yanvar oyi, mln. AQSh dollari)***




Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor davlatlar orasidan 12 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (8,8 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (7,0 mln. AQSh dollari), Qozog‘iston (3,4 mln. AQSh dollari) va Latviya (1,2 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI
*(yanvar oyi, ming. AQSh dollari)*

| Davlat nomi | 2021-yil | 2022- yil | 2023- yil |
|---|---|---|---|
| **Turkiya** | **7774,4** | **8672,8** | **8772,3** |
| Eksport | 6697,6 | 7723,3 | 8595,9 |
| Import | 1076,8 | 949,5 | 176,4 |
| Saldo | 5620,8 | 6773,8 | 8419,5 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **12946,9** | **13056,6** | **6962,8** |
| Eksport | 11040,4 | 7633,4 | 4423,0 |
| Import | 1906,5 | 5423,2 | 2539,8 |
| Saldo | 9133,9 | 2210,2 | 1883,2 |
| **Qozog‘iston** | **3774,1** | **4688,7** | **3365,9** |
| Eksport | 2722,6 | 2201,3 | 1310,7 |
| Import | 1051,5 | 2487,4 | 2055,2 |
| Saldo | 1671,1 | -286,1 | -744,5 |
| **Latviya** | **2345,9** | **3110,5** | **1151,9** |
| Eksport | 2345,9 | 3061,7 | 1151,9 |
| Import | | 48,8 | |
| Saldo | 2345,9 | 3012,9 | 1151,9 |
| **Rossiya Federasiyasi** | **9455,1** | **8800,4** | **4319,9** |
| Eksport | 6751,4 | 5409,3 | 1031,1 |
| Import | 2703,7 | 3391,1 | 3288,8 |
| Saldo | 4047,7 | 2018,2 | -2257,7 |
| **Soedinennoe Korolevstvo** | **164,4** | **1988,2** | **348,4** |
| Eksport | | 1715 | 338,9 |
| Import | 164,4 | 273,2 | 9,5 |
| Saldo | -164,4 | 1441,8 | 329,4 |

| Davlat nomi | 2021-yil | 2022- yil | 2023- yil |
|---|---|---|---|
| **Niderlandiya** | **91,2** | **350,4** | **558,6** |
| Eksport | | | 317,2 |
| Import | 91,2 | 350,4 | 241,4 |
| Saldo | -91,2 | -350,4 | 75,8 |
| **Gruziya** | **150,2** | **256,1** | **195,5** |
| Eksport | 150,2 | 256,1 | 195,5 |
| Import | | | |
| Saldo | 150,2 | 256,1 | 195,5 |
| **Fransiya** | **702,9** | **240,8** | **177,9** |
| Eksport | 613,7 | 208,3 | 177,2 |
| Import | 89,2 | 32,5 | 0,7 |
| Saldo | 524,5 | 175,8 | 176,5 |
| **Litva** | **129,6** | **92,2** | **278,7** |
| Eksport | | | 145,7 |
| Import | 129,6 | 92,2 | 133 |
| Saldo | -129,6 | -92,2 | 12,7 |
| **Afg‘oniston** | **233,9** | **704,2** | **160,6** |
| Eksport | 233,9 | 704,2 | 141 |
| Import | | | 19,6 |
| Saldo | 233,9 | 704,2 | 121,4 |
| **Pokiston** | **172,6** | **10,7** | **116,9** |
| Eksport | 11,3 | 10,7 | 116,9 |
| Import | 161,3 | | |
| Saldo | -150 | 10,7 | 116,9 |
| **Estoniya** | **325,8** | **317,7** | **115,4** |
| Eksport | 325,8 | | 115,4 |
| Import | | 317,7 | |
| Saldo | 325,8 | -317,7 | 115,4 |

| Davlat nomi | 2021-yil | 2022- yil | 2023- yil |
|---|---|---|---|
| **Koreya Respublikasi** | **1717,6** | **2491,8** | **2164,7** |
| Eksport | 100,7 | 125,3 | 58,5 |
| Import | 1616,9 | 2366,5 | 2106,2 |
| Saldo | -1516,2 | -2241,2 | -2047,7 |
| **Eron** | **44,4** | **423** | **83,3** |
| Eksport | | 141,4 | 50,4 |
| Import | 44,4 | 281,6 | 32,9 |
| Saldo | -44,4 | -140,2 | 17,5 |
| **Tojikiston** | **386,8** | **103,5** | **42,4** |
| Eksport | 386,8 | 103,5 | 42,4 |
| Import | | | |
| Saldo | 386,8 | 103,5 | 42,4 |
| **Misr** | **0** | **21,9** | **26,4** |
| Eksport | | 21,9 | 26,4 |
| Import | | | |
| Saldo | 0 | 21,9 | 26,4 |
| **Tayvan** | **0** | **37,5** | **23,8** |
| Eksport | | 37,5 | 23,8 |
| Import | | | |
| Saldo | 0 | 37,5 | 23,8 |
| **Germaniya** | **1424,3** | **183,4** | **1722,8** |
| Eksport | 0,1 | 17,6 | 7,3 |
| Import | 1424,2 | 165,8 | 1715,5 |
| Saldo | -1424,1 | -148,2 | -1708,2 |
| **Turkmaniston** | **168,6** | **358,3** | **118,1** |
| Eksport | 2,3 | 3 | 7,2 |
| Import | 166,3 | 355,3 | 110,9 |
| Saldo | -164 | -352,3 | -103,7 |

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi va bu ko‘rsatkich so‘ngi yillarda biroz o‘zgardi.

Respublikamizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2023- yilning yanvar oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 24,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2022- yilga nisbatan ulushi 57,7 % ni tashkil etdi.



**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar oyi, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)***




Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2023- yilning yanvar oyida 2022- yilning shu davriga nisbatan 16,3 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 75,8 % ni tashkil etdi.

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI
*(2023-yil yanvar oyi)*

Joriy yilning yanvar oyida mamlakatning eksportyorlari soni 60 tani tashkil etib, ular tomonidan 18,3 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan 58,8 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,5 % ni tashkil etib, ular asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (68,0 %), sanoat tovarlari (14,0 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari (7,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,1 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




## XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI
*(2023- yil yanvar oyi, ulushi, % da)*



2023- yilning yanvar oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta‘kidlash joizki, 2022- yilning yanvarga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari),sanoat tovarlari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o‘sish kuzatildi.




**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(yanvar oyi, % da)***

| XSST tarkibi | 2020-yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 4,8 | 5,7 | 10,1 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 12,5 | 4,7 | 7,4 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 1,3 | - | - |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 72,6 | 80,4 | 68,0 |
| Sanoat tovarlari | 8,0 | 8,8 | 14,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | - | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 0,5 | 0,2 | 0,1 |
| Xizmatlar | 0,3 | 0,4 | 0,4 |



## XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI
*(2023-yil yanvar)*

| XSST bo‘limi nomi | Ming AQSh dollari | 2020- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 1680,2 | 152,6 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 121,4 | 19,3 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 28,6 | 117,6 |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 1,0 | 47,0 |
| Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 19,6 | |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | | |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | | |
| **Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 960,8 | 75,6 |
| To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 214,0 | 151,4 |
| Moy olinadigan urug‘lar va mevalar | 0,9 | 12,7 |
| O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko‘mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari) | 99,7 | 382,6 |
| Qo'ziqorin va yog'och | 72,8 | |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | | |
| **Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlikmoylarivayog‘lari (xom, tozalanganyokifraksiyalangan) | - | - |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Noorganik kimyo moddalari | 11,2 | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | | |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari | | |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 26,8 | |
| Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar | | |

| | | |
|---|---|---|
| Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar | 12396,4 | 49,7 |
| **Sanoat tovarlari** | | |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 2496,4 | 92,1 |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 42,5 | 234,4 |
| Boshqa boshqa bo'lmagan metall buyumlar | | |
| Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | | |
| Teri, boshqa bo'lmagan tayyor charm mahsulotlari, mo'ynalar | | |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan, metall bo'lmagan minerallardan olingan mahsulotlar | 12,1 | |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | | |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | | |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari | | |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | | |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | | |
| Maxsus bo'limlar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar | | |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Har xil tayyor buyumlar | | |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 22,1 | 49,7 |
| Кiyim-кechaklarva кiyim-кechaк anjomlari | | |
| Santexnika, isitish va yoritish uskunalari uchun binolar, armatura va armatura bloklari, boshqa toifalarga kiritilmagan | | |
| Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar | | |
| Boshqa boshqa turdagi tayyor mahsulotlar. | 5,6 | 126,5 |
| **Xizmatlar** | | |
| Moliyaviy xizmatlar | 49,0 | 109,6 |
| Transport xizmatlari | 5,2 | 7,0 |
| Safarlar (turizm) | 12,7 | 199,8 |
| Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar | | |
| Qurilish xizmatlari | | |

So‘nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2022-yilning yanvarga 29,3 % dan 2023- yilning yanvar oyida 13,1 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 86,9 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar oyi, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)***




2023- yilning yanvar oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Turkiya (47,0 %), Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 24,2 % i), Qozog‘iston (7,2 %), Latviya (6,3 %), Rossiya Federatsiyasi (5,6 %), Niderlandiya (1,7 %) va Gruziya (1,1 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 93,1 foizni tashkil etmoqda.

## RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
*(2023-yil yanvar oyi,% da)*




2023- yilning yanvar oyida, o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasining ikki pog'onaga tushishi hisobiga, Turkiya eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Joriy yilning yanvar oyida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2022-yilning mos davriga nisbatan 30 davlatdan 28 davlatni tashkil etdi.

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI

*(2023- yil yanvar oyi, ming AQSh dollari)*

| Davlatlar | Ming AQSh dollari | | O‘sish sur‘ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2022-y. | 2023-y. | 2022-y. | 2023-y. | 2022-y. | 2023-y. |
| Turkiya | 7723,3 | 8595,9 | 115,3 | 111,3 | 1 | 1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 7633,4 | 4423,0 | 69,1 | 57,9 | 2 | 2 |
| Qozog‘iston | 2201,3 | 1310,7 | 80,9 | 59,5 | 5 | 3 |
| Latviya | 3061,7 | 1151,9 | 130,5 | 37,6 | 4 | 4 |
| Rossiya | 5409,3 | 1031,1 | 80,1 | 19,1 | 3 | 5 |
| Soedinennoe Korolevstvo | 1715,0 | 338,9 | | 19,8 | 6 | 6 |
| Niderlandiya | | 317,2 | | | | 7 |
| Gruziya | 256,1 | 195,5 | 170,5 | 76,3 | 9 | 8 |
| Fransiya | 208,3 | 177,2 | 33,9 | 85,1 | 11 | 9 |
| Litva | | 145,7 | | | | 10 |
| Afg‘oniston | 704,2 | 141,0 | 301,1 | 20,0 | 8 | 11 |
| Pokiston | 10,7 | 116,9 | 94,5 | 1092,9 | 23 | 12 |
| Estoniya | | 115,4 | | | | 13 |
| Koreya Respublikasi | 125,3 | 58,5 | 124,4 | 46,7 | 14 | 14 |
| Eron | 141,4 | 50,4 | | 35,6 | 13 | 15 |
| Tojikiston | 103,5 | 42,4 | 26,8 | 40,9 | 16 | 16 |
| Misr | 21,9 | 26,4 | | 120,4 | 21 | 18 |
| Tayvan | 37,5 | 23,8 | | 63,5 | 19 | 19 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari) kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 67,1 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,4 % ulishini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,4 % ulishiga barobar kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (73,1 %), safarlar (turizm) (19,2 %), transport (7,7 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.



**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI**
***(2023- yil yanvar, ulushi, % da)***




## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI
***(2023-yil yanvar oyi)***

2023- yilning yanvar oyida import hajmi 18,6 mln. AQSh dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (22,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,2 %) hamda kimyoviy

vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (13,1 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



**XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI**
***(2023- yil yanvar oyi, ulushi, % da)***




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2023- yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 18,6 mln. AQSh dollariga ko‘paydi va 104,6 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 4,4 mln. AQSh dollariga yetdi.

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2022- yilning yanvar oyida 2023- yilning mos davriga nisbatan nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari importining ulushi 5,8 % dan 7,9 % gacha o‘sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalari 33,6 % dan 22,6 % ga kamaydi, turli xil tayyor buyumlar ulushi esa 1,0 % dan 1,7 % ga o‘sdi.



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(2023- yil yanvar oyi ulushi, % da)***

| XSST tarkibi | 2021yil | 2022- yil | 2023- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami import** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 11,1 | 16,2 | 10,2 |
| Ichimliklar va tamaki | | | |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 5,0 | 5,8 | 7,9 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shungao‘xshash materiallar | 4,8 | 5,4 | 5,5 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 3,7 | 1,6 | 3,9 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 12,1 | 17,5 | 13,1 |
| Sanoat tovarlari | 6,7 | 13,0 | 11,6 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 53,0 | 33,6 | 22,5 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 1,7 | 1,0 | 1,7 |
| Xizmatlar | 1,9 | 5,9 | 23,6 |

Xizmatlar importining tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2022- yilning yanvar oyida 2023- yilning yanvarga nisbatan jami importdagi ulushi 5,9 % dan 23,7 % ga ko‘paydi.



## ALOHIDA IMPORT TOVARLAR
*(2023- yil yanvar, oyi, ming AQSH. doll.)*






## XSTT BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI
*(2023-yil yanvar)*

| Mahsulot nomi | Ming AQSh dollari | o‘zgarish sura‘tlari, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 1545,6 | 71,0 |
| Tirik hayvonlar | 46,3 | 12,3 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 140,1 | 119,7 |
| Sabzavotlar va mevalar | 19,6 | 15,3 |
| Go‘sht va go‘sht mahsulotlari | 61,5 | 754,9 |
| Shakar mahsulotlari va asal | | |
| Sut mahsulotlari va qush tuxumlari | | |
| Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo‘lmagan), qisqichbaqa simonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarimtayyor mahsulotlar | 29,7 | |
| Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 18,6 | 49,7 |
| Hayvonlar uchun ozuqa | 41,1 | |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | | |
| **Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg‘idantashqari** | | |

| | | |
|---|---|---|
| Probka va yog'och-taxtalar | 1390,5 | 140,0 |
| Tabiiy kauchuk (shu jumladan sintetik kauchuk va qayta ishlangan kauchuk) | 65,6 | 220,1 |
| Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | | |
| O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | | |
| To'qimachilik tolalari | | |
| Qog'oz va makulatura | | |
| Yog'li urug'lar va yog'li mevalar | 4,9 | |
| **Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar | 1006,9 | 111,9 |
| Ko'mir, koks va briketlar | 13,2 | 23,7 |
| Tabiiy yoki sun'iy gaz | | |
| **Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar** | | |
| O'simlik moylari va yog'lari | | |
| Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari | 725,2 | 259,5 |
| Hayvonlar moylari va yog'lari | - | - |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 67,9 | 26,8 |
| Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar | | |
| Kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 1374,0 | 87,9 |
| Organik kimyo moddalari | 582,2 | 49,6 |
| Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar | | |
| Noorganik kimyo moddalari | 64,1 | 504,7 |
| Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, jilolash va yuvish vositalari | | |
| O'g'itlar | | |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 343,8 | 387,0 |
| **Sanoat tovarlari** | | |
| Cho'yan va po'lat | 13,7 | 3,2 |
| Rezina buyumlari | 43,4 | 107,9 |
| Boshqa boshqa bo'lmagan metall buyumlar | 56,7 | 84,7 |
| To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar | | |
| Ruda metall bo'lmagan mineral mahsulotlar. | | |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 2037,8 | 120,4 |
| Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar | | |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar | 5,4 | 6,7 |

| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | | |
|---|---|---|
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 6,9 | 195,8 |
| Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar | 3671,6 | 91,3 |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari | 141,4 | 12,7 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning elektr qismlari | 193,5 | 112,1 |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | 0,1 | |
| Metallarni qayta ishlash mashinalari | 17,4 | |
| Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar | | |
| Avtomobillar | 154,1 | 23,4 |
| Boshqa transport vositalari | | |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Har xil tayyor buyumlar | 1,7 | 16,3 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 274,3 | 354,9 |
| Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 28,0 | 33,7 |
| Poyabzal | | |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | | |
| Mebel va uning qismlari, yotar joy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar | 6,8 | 56,8 |
| Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar | | |
| **Xizmatlar** | | |
| Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar | 764,2 | 89,1 |
| Transport xizmatlari | 30,6 | |
| Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari | 3407,5 | |
| Moliyaviy xizmatlar | 195,0 | 105,4 |
| Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari | | |

Turli xil tayyor buyumlar importi hajmlarining kamayishiga mebel va uning qismlari, yotar joy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar (56,8 % ga pasaygan), Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va

mahkamlash moslamalari (33,7 % ga pasaygan) importining kamayishi ta’sir qilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi kamayishiga esa, Tirik hayvonlar (12,3 % ga pasaygan) importining kamayganligi bevosita ta’sir etgan.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar oyi, mln. AQSh dollari, ulushi,% da)***




Hisobot davri yakunlariga ko‘ra, import bo‘yicha hamkor davlatlar orasida Shveciya umumiy import hajmida 18,2 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (17,7 %) ortda qoldirgan holda birinchi o‘rinni egalladi.

2023- yilning yanvar oyi yakuni bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi tomonidan 27 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

## TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
*(yanvar oyi)*

| Davlat nomi | Ming AQSH dollari | | o'sish sur'ati, % da | | o'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2022-y. | 2023-y. | 2022-y. | 2023-y. | 2022-y. | 2023-y. |
| Shveciya | - | 3383,3 | - | - | - | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 3391,1 | 3288,8 | 125,4 | 97,0 | 2 | 2 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 5423,2 | 2539,8 | 284,5 | 46,8 | 1 | 3 |
| Koreya Respublikasi | 2366,5 | 2106,2 | 146,4 | 89,0 | 4 | 4 |
| Qozog'iston | 2487,4 | 2055,2 | 236,6 | 82,6 | 3 | 5 |
| Germaniya | 165,8 | 1715,5 | 11,6 | 1034,9 | 14 | 6 |
| Belarus | 8,1 | 1003,3 | 12,9 | 12315,6 | 24 | 7 |
| Qatar | | 537,3 | | | | 8 |
| Shvesariya | | 414,5 | | | | 9 |
| BAA | 439,0 | 304,1 | 87,7 | 69,3 | 6 | 10 |
| Niderlandiya | 350,4 | 241,4 | 384,3 | 68,9 | 8 | 11 |
| Turkiya | 949,5 | 176,4 | 88,2 | 18,6 | 5 | 12 |
| Slovakiya | | 172,2 | | | | 13 |
| Litva | 92,2 | 133,0 | 71,2 | 144,2 | 16 | 14 |
| AQSH | 0,6 | 115,0 | 1,5 | 18138,8 | 27 | 15 |
| Turkmaniston | 355,3 | 110,9 | 213,6 | 31,2 | 7 | 16 |
| Mongoliya | | 61,5 | | | | 17 |
| Qirg'iz Respublikasi | 55,7 | 59,4 | 14,1 | 106,7 | 18 | 18 |
| Hindiston | 4,2 | 41,3 | 41,1 | 995,4 | 25 | 19 |
| Eron | 281,6 | 32,9 | 634,9 | 11,7 | 10 | 20 |

Shuni ta'kidlash kerakki, Shveciya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya kabi mamlakatlar Qoraqalpog'iston Respublikasiga tovar va xizmatlar importidagi yirik hamkor davlatlar birinchi yigirmataligiga kirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Shveciya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Qozog‘iston, Germaniya, Belarus Respublikasi) jami importning 86,6 % ulushini tashkil qildi, bu 16,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**
***(2023- yil yanvar oyi, % da)***




Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilanganisari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida moshina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o‘sishi tabiiydir. Shunday qilib, Shveciya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Koreya Respublikasi

tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI**
***(2023-yil yanvar oyi, ulushi, % da)***




2023- yilning yanvar oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 4 397,3 ming AQSh dollarini yoki jami import hajmining 421,7 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 17,8 % ga ko‘paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xizmatlar (77,5 %), boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (17,4 %) dan iborat bo‘ldi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar va (4,4 %), transport (0,7 %) xizmatlari tashkil etdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Tel: (61) 224-92-06**